

## Amir Shohmurod ibn Doniyolbiy



# Amir Shohmurod ibn Doniyolbiy

(1749-1800)

(1785-1800)

Buxoro amiri. **Mang'itl**ardan bo'lgan. Yoshligidan xudojoy, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib darvishlik suluki soliklaridan biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni hurmat bilan **"amiri ma'sum"** (*begunoh amir*) unvonini bergan. Shohmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratgan. Uning xalq orasida obro'si katta bo'lganligi uchun **Doniyolbiy** uni o'ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo'lgan. O'n nafar ukalaridan birortasi ham Shohmurodni yoqtirmas edi. Amirlik taxtiga chiqqach (1785), ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi. Markaziy hokimiyat mustahkamlash ishiga qattiq bel bo'g'lagan hukmdor edi. Mang'it namoyondalar orasida Shohmurod ham shaxs, ham arbob sifatida alohida o'rin tutgan, desak xato bo'lmaydi. Zolim qo'shbegi va qozikalon *Nizomiddinni* qatl ettiradi. Harbiy ishlar, qozilik ishlarini shariat qonunlari asosida tashkil qiladi. Hokimiyat boshqarish tartiblarini isloh qilib, siyosiy tarqoqlikka barham beradi.

Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutgan. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Jumladan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylak kiygan. Boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kovush kiygan. Marv yaqinida **Islombod** shahrini qurdirgan.

XVIII asrning 20 yillarida boshlangan o'zaro kurashlar natijasida Samarqand talangan, vayrona holiga tushib qolgan edi. Amir Shohmurod esa ko'plab quruvchi, koshinpaz va naqqosh ustalarni tevarak atrofdan olib keltirib, Samarqand shahrini qayta tiklashni buyurdi. Qayta qurilajak shahar

tarhini Amir Shohmurodning o'zi chizib bergan.

Amir Shohmurod bundan tashqari, G'uzor tumanida madrasa va masjid qurdirgan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu qurilib, **“Toqi musaddas”** deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrisni Shohmurodning o'zi tayinlagan. Talabalar va mudarrisning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

Amir Shohmurod ba'zi islohatlar o'tkazib davlatni mustahkamlashga erishdi: Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Otasi Doniyolbiy davrida joriy etilgan turli soliqlarni bekor qilgan. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askarlavozimini joriy qildi. Otasi davrida qisqartirilgan vaqf yerlari miqdorini oshirdi. Bu bilan islom ruhoniylari e'tiborini qozondi. Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohati muhim ahamiyat kesb etdi: Shohmurod sof kumushdan tanga zarb qilishni buyurdi. Kimning kumushi (nuqrasi) bo'lsa, zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar – pul olishi mumkin edi. ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Yangi pul tijorat ishlari rivojiga yo'l ochib berdi. Barcha viloyatlarga yangi hokimlar tayin qildi, har shahar va qishloqqa qozi tayinladi. Bu bilan hokimlar o'z boshimchaligiga barham berdi. Shohmurodning o'zi qozilarga dastur bo'ladigan fiqh haqida **“Ayn ul-hikmat”** nomli risola yozdi va ilgari surulgan qoidalarni barcha viloyatlarga joriy qildi. Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi. Shariat qonunlarini amalga tadbir etish maqsadida *raislik (muhtasib)* mansabini joriy qildi.

Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishini karvon yo'llarining xatarsizligini ta'minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo'ldi. Zarafshon vodiysi, Amudaryo havzasi va Qashqadaryo vohasi qadimgidek obod bo'ldi. Davlat mablag'i hisobidan anhorlar chiqarilib, tashlandiq yerlar obod etildi. Natijada, davlat xazinasida tushum ko'paydi.

Amir Shohmurod 1789-1790 yillari Marvda o'z hokimiyatini o'rnatib, marvliklarning bir necha o'n minglik kishini Samarqand va Buxoroga ko'chirtiradi. Shundan so'ng, eskidan Samarqand yoki Buxoro (ya'ni poytaxt ma'nosida) izmida bo'lib kelgan Balx, Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emas edi. Zero, 1747 yildan boshlab Balx, Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o'z tasarrufiga olgan Afg'oniston hududida tashkil topgan durroniylar sulolasi namoyondasi *Temurshoh* ham bo'sh keladiganlardan emas edi. Xullas o'zaro kurashlar qattiq bo'lsada sezilarli natija chiqmagan.

Buxoro xonligini birlashtirish va markazlashtirish uchun kurashni davom ettirgan. Mang'itlar sulolasining namoyondasi bo'lgan Shohmurod Buxoroda (1785 yilda) xalq qo'zg'olonidan keyin taxtga o'tirib, hokimiyatni o'z qoliga olgan. Shohmurod qo'zg'olonni bostirish uchun Buxoro aholisiga yon berishga majbur bo'ldi: u shahar aholisiga tantanali ravishda Tarxon yotrig'i topshirdi. U muoliyaviy, ma'muriy, harbiy va sud islohotlarini o'tkazishga majbur bo'ldi. Pul muomalasida, soliq ishida sud va ma'muriy boshqaruv ishlarida ma'lum tartib o'rnatishda hamda savdogarlarni va hunarmand kosiblarni o'zlarining mulklariga feodallar tomonidan qilinayotgan Taaddiylardan birmuncha qutqarish orqali davlat hokimiyatini mustahkamlashga intildi. Nomiga xon qilib ko'tarilgan Abdulg'ozini nomidan 1785 yilda Shohmurod tomonidan o'tkazilgan pul islohoti ilgari qadri past tangalardan tashki ko'rinishi boshqacha bo'lgan kichikroq va vazni

kamroq bo'lgan to'la qimmatli kumush tangalarni chuqarishdan iborat bo'ldi. shu bilan bir vaqtda, u bemalol tanga zarb ettirish sistemasini joriy etdi. Shohmurodning bu islohoti XVII-XVIII asrlarda pul muomalasiga ko'p putur yetkazgan chayqovchilikka va tangalarni buzishga yo'l qo'ymasligi lozim edi. Shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq, oliq va soliq deb ataladigan bir necha soliqlarni, shuningdek, ilgari xonlar hunarmandlardan olishga odatlanib qolgan o'lponlarini va ularga yuklayotgan tekin mehnat majburiyatlarni bekor qildi. Biroq, darobmadlar kamayib ketgankigi va katta qo'shin saqlab turish zarur bo'lib qolganligi buni aholidan “ **Jul**” deb atalgan va shariatga also ta'luqli bo'lmagan pul solig'ini tez olib turishga majbur bo'ldi. Shohmurod ma'muriy islohotni buxoroning oliy amaldorlari Davlatqushbegini va Nizomiddin qozikalonni o'z qo'li bilan qatl etishdan boshladi. So'ngra viloyatlarning beklari va qozilari olib tashlanib, ularning o'rniga yangi amirning hamfikrlari tayinlanadi.

2023-11-05 12:05:21